

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.08.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

OSIYO XALQARO UNIVERSITETI

DILMURODOV XURSHIDBEK BAHODIR O'G'LI

**AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMINING IQTISODIY
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**IQTISODIYOT FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Dilmurodov Xurshidbek Bahodir o‘g‘li

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari..... 3

Дилмуродов Хуршидбек Баходирович

Направления совершенствования экономического механизма системы социальной защиты 31

Dilmurodov Khurshidbek Bahodirovich

Directions for improving the economic mechanism of the social protection system..... 61

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 65

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.08.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH
OSIYO XALQARO UNIVERSITETI**

DILMURODOV XURSHIDBEK BAHODIR O‘G‘LI

**AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMINING IQTISODIY
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4537 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Osiyo xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

A.J. Abdullayev
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nizamov Asletdin Badreddinovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Askarov Nazimjon Niyozovich
iqtisodiyot fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.08.03 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.:(99865)221-29-14, (998 65) 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Dissertatsiya bilan Osiyo xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Buxoro shahar, "Yangiobod MFY", G'ijduvon ko'chasi, 74-uy. Tel:+998 55 305 00 09. Email: info@oxu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "____" _____ dagi _____ -raqamli reyestr bayonnomasi).

O.X. Xamidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik kengash raisi, i.f.d., professor

D.Sh. Yavmutov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

N.B. Navruz-Zoda

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik kengash ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir bo'layotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik yo'nalishdagi keskinliklar turli mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimlarining iqtisodiy mexanizmi samaradorligiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatib, ijtimoiy himoya bilan aholining qamrov darajasini kamayishiga olib kelmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, "bugungi kunda jahon aholisining 52,0 foizi ijtimoiy himoya bilan qamrab olingan bo'lib, quyi daromadli mamlakatlarda 78 foiz, o'rta quyi daromadli mamlakatlarda 28 foiz, hamda, o'rta yuqori daromadli mamlakatlarda 11 foiz ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi bu turdagi xizmatlar bilan qamrab olinmagan"¹. Bu esa aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish zaruriyatini uyg'otadi.

Jahonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, jumladan, aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordam dasturlarining manzilliligini va samaradorligini oshirish, ularni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, ijtimoiy himoya tizimini raqamli texnologiyalar asosida transformatsiyalash, aholini ijtimoiy himoya qilishda hududiy va individual yondashuvlardan foydalanishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar doirasida aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordam dasturlarining manzilliligi va samaradorligirini oshirish, ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish, mehnat bozorida aholi bandligini ta'minlash bilan integratsiyalashtirilgan aholini ijtimoiy himoya qilishning faol dasturlarini amalga oshirishda ustuvorlik qaratilib kelinmoqda. Xususan, prezident Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan "kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan mahallalar ro'yxati" ham shakllantiriladi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi va hokimliklar tomonidan har yili 50 ta mahalla tanlab olinib, ular kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirib boriladi"², deb bildirgan fikrlari mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar kelgusida ham o'z ustuvorligini saqlab qolishidan dalolat beradi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-apreldagi PF-128-sonli "Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 25-iyuldagi PF-175-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2024-yil 23-sentyabrdagi PF-143-sonli "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi, 2025-yil 8-maydagi PF-84-sonli "Kambag'al oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash

¹ State of Social Protection Report 2025: The 2-Billion-Person Challenge. International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank, 2025. – 90 p.

² Kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimi takomillashtiriladi. <https://www.president.uz/uz/lists/view/7467>

tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-apreldagi PQ-230-sonli “Ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2024-yil 23-sentyabrdagi PQ-330-sonli “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-avgustdagi 484-sonli “Aholining ehtiyojmand qatlamlari uchun davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 27-dekabrda 897-sonli “Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda “Ijtimoiy karta” tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2025-yil 27-fevraldagi 125-sonli “Oilalarni kambag‘allikdan chiqarishga qaratilgan ko‘mak choralari ko‘rsatishga doir tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Uzoq xorijlik A. Aranguiz, S. Ganti, S. Jergensen, U. Cattaneo, S. Skarpetta, T. Olivera³ kabi iqtisodchi olimlar so‘nggi yillarda global darajada aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilish xususiyatlari va uni isloh etishning ilmiy-uslubiy asoslarini o‘rganishgan.

Yaqin xorijlik olimlardan I.B.Komalkov, A.V.Kurmashev, K.P.Glushenko, V.Gantchev, D.V.Blashov⁴ kabilar tomonidan mamlakatda bozor iqtisodiy munosabatlarini shakllantirish sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilish xususiyatlari tadqiq etilgan.

³ Aranguiz A. Securing decent incomes at a crossroads: On the legal feasibility of a Framework Directive on Minimum Income. *European Journal of Social Security*, Vol. 22, Issue 4, 2020. – P. 467–485; Ganti S. Poverty as misrecognition: What role for antidiscrimination law in Europe? *Human Rights Law Review*, Vol. 21, Issue 4, 2021. – P. 962–1007; Jergensen S. Social assistance and the end of poverty. *European Journal of Social Security*, Vol. 26, Issue 1, March 2024. – P. 27–43; Cattaneo U., Schwarzer H., Razavi S., Visentin A. Financing gap for universal social protection: Global, regional and national estimates and strategies for creating fiscal space. ILO Working Paper 113, Geneva, 2024. – 48 p.; Scarpetta S. Financing Social Protection in OECD Countries: Role and Uses of Revenue earmarking. OECD Social, Employment and Migration Working Paper No. 312. OECD, 2024. – 26 p.; Oliveira T. Social Assistance Summaries, 2024. Caledon, Institute of Social Policy, March, 2025. – 119 p.

⁴ Колмаков И.Б. Методология расчета и анализа интегральных оценок показателей поляризации денежных доходов населения. *Вопросы статистики*, № 2, 2015. – С. 23–36; Курамшев А.В., Широков А.А. Социология социального и ассоциаций: Эмиль Дюркгейм и Габриель Тард об изменениях в обществе. *Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. Серия: Социальные науки*, 2016, № 3 (43). – С. 131–138; Глушенко К.П. К вопросу о применении индекса джини и других показателей неравенства. *Вопросы статистики*, № 2, 2016. – С. 71–80; Gantchev V. Data protection in the age of welfare conditionality: Respect for basic rights or a race to the bottom? *European Journal of Social Security*, Vol. 21, Issue 1, 2019. – P. 3–22; Блашов Д.В. Идея справедливости Амартии Сена. *Журнал политической философии и социологии политики «Полития. Анализ. Хроника. Прогноз»*, № 4 (95), 2019. – С. 25–38

O'zbekistonlik D.N.Raximova, Sh.A.Mirzayev, H.P.Abulqosimov, B.B.Baxtiyorov, M.O.Mirzamaxmudova⁵ kabi iqtisodchilar mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilish xususiyatlari, uni moliyalashtirish amaliyoti, ijtimoiy jihatdan muhtojlikni aniqlashning uslubiyoti va uni takomillashtirish borasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Shu bilan birgalikda, O'zbekiston sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq masalalar kompleks tarzda tizimli, maxsus tadqiqot obyekti sifatida tahlil etilmagan. Muammoning dolzarbligi iqtisodiy adabiyotda yetarlicha o'rganilmaganligi, kutilayotgan ilmiy natijalarni ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi ushbu mavzuni tadqiqot obyekti sifatida tanlashga asos bo'ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Osiyo xalqaro universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmiga bag'ishlangan ilmiy qarashlarni tahlil qilish;

aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilish tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

aholini ijtimoiy himoya qilishning iqtisodiy mexanizmi amal qilishining global tendensiyalarni baholash;

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari va ustuvorliklarini tahlil qilish;

mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining samaradorlik holatini baholash;

aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini oshirish yo'nalishlarini aniqlash;

aholining ijtimoiy jihatdan muhtojligini "Scoring" va reyting tizimlarini joriy etish imkoniyatlarini tadqiq etish;

aholining ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning muqobil ssenariyalarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi hisoblanadi.

⁵ Raximova D.N. Davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya tadbirlari qo'llanilishi. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – T., 2000, № 3. – B. 40; Mirzaev III.A. Пути усиления адресности социальной защиты населения в условиях переходной экономики (на материалах Узбекистана). Автореф. диссертации. –Т., 2006. – С. 8; Iqtisodiyotga oid atama tushunchalarning izohli lug'ati. Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. – T.: "ABU MATBUOT-KONSALT", 2017. – B. 186; Baxtiyorov B.B. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari: i.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. 2020 – 55 b.; Mirzamaxmudova M.O. Ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlarini aniqlashning nazariy asoslarini takomillashtirish. I.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – T., 2022. – 32 b.

Tadqiqotning predmetini mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish jarayonida sodir bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash, ekonometrik tahlil va prognozlashtirish usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini aholining barcha kam ta'minlangan va ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlari bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini "yagona reyestr", "Biometrik-ID" va "Ijtimoiy muhtojlikni avtomatlashtirilgan baholash" bo'yicha raqamlashtirish orqali resurs taqsimotidagi hududiy yondashuvga asoslangan ijtimoiy yordamni manzilli yetkazish taklifi asoslangan;

"Ijtimoiy daftarlar" tizimi amal qilishida ishtirok etuvchi jamg'armalar tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy yordamlar Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oilalarga, uy-joy sharoitlarini yaxshilash va sog'liqni saqlash bo'yicha ijtimoiy yordamlar esa oylik daromadi oila a'zolarining har biriga minimal iste'mol xarajatlari miqdorining 2 baravaridan ko'p bo'lmagan oilalarga ham taqdim etilishi taklifi asoslangan;

ijtimoiy jihatdan muhtojlikni baholash uslubiyoti kambag'allik darajasining "qizil", "sariq" va "yashil" toifalarga guruhlash orqali ularga toifalaridan kelib chiqib davlat xizmatlaridan foydalanishda 25-75 foizgacha imtiyozlarni qo'llashga asoslanuvchi hududiy reyting va individual tartibdagi "Scoring" baholash uslubiyoti asosida takomillashtirilgan;

bandlik va faol ijtimoiy himoya dasturlari samaradorligini oshirishda o'zaro integratsiyalash "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan aholi uchun 50-100 tagacha ish o'rinlari uchun 50 foiz, 101-200 tagacha – 75 foiz, 200 tadan ortiq ish o'rinlari yaratilganligi uchun 100,0 foizlik mol mulk va yer solig'i imtiyozlari taqdim etish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini kambag'al aholining iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlari orqali takomillashtirishning bazaviy, inersion va optimistik ssenariyalariga asoslangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmiga bag'ishlangan ilmiy qarashlarni tahlil qilish asosida aholini ijtimoiy himoya qilish va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi iqtisodiy kategoriyalariga takomillashtirilgan mualliflik yondashuvlari ishlab chiqilgan;

aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilish tamoyillari tahlil qilinib, ularning o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan;

aholini ijtimoiy himoya qilishning iqtisodiy mexanizmi amal qilishining global tendensiyalari baholangan;

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari va ustuvorliklari tahlil qilingan;

mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining samaradorligi holati baholangan;

aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini oshirish yo‘nalishlari aniqlangan;

aholining ijtimoiy jihatdan muhtojligini individual tartibdagi “Scoring” va hududlar kesimidagi reyting tizimlari ishlab chiqilgan;

aholining ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning inersion, bazaviy va optimistik ssenariyalari taqdim etilgan.

Tadqiqotning natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Jahon banki, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti rasmiy ma’lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishdagi davlat dasturlari samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus ilmiy tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining manzilliligi va samaradorligini oshirish, ijtimoiy himoya dasturlarini o‘z vaqtida yetkazish va aholini kambag‘allikdan olib chiqishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishda, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Ijtimoiy siyosat”, “Ijtimoiy soha iqtisodiyoti”, “Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta’minotga kirish” fanlarining ishchi-o‘quv dasturlarini takomillashtirish va talabalarga ta’lim berish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini aholining barcha kam ta’minlangan va ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlari bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasini “yagona reyestr”, “Biometrik-ID” va “Ijtimoiy muhtojlikni avtomatlashtirilgan baholash” bo‘yicha raqamlashtirish orqali resurs taqsimotidagi hududiy yondashuvga asoslangan ijtimoiy yordamni manzilli yetkazish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyundagi PF-175-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonining 3-bob 14-maqсад 1-xatboshida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Savdo-Sanoat palatasi 2025-yil 17- oktabr 05-33-11864-sonli ma’lumotnoma).

Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi hisobiga aholini ijtimoiy jihatdan muhtojligini to'g'ri baholash orqali ijtimoiy yordam dasturlarining manzilliligini oshirishga erishilgan;

“Ijtimoiy daftarlar” tizimi amal qilishida ishtirok etuvchi jamg'armalar tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy yordamlar Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oilalarga, uy-joy sharoitlarini yaxshilash va sog'liqni saqlash bo'yicha ijtimoiy yordamlar esa oylik daromadi oila a'zolarining har biriga minimal iste'mol xarajatlari miqdorining 2 baravaridan ko'p bo'lmagan oilalarga ham taqdim etilishi taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-sonli “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to'g'risida”gi Farmonining 1.a-bandida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Savdo-Sanoat palatasi 2025-yil 17- oktabr 05-33-11864-sonli ma'lumotnoma). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi hisobiga mamlakatda ijtimoiy jihatdan muhtojlik chegarasidagi turmush farovonligiga ega bo'lgan aholi guruhlariga ijtimoiy yordam ko'rsatilishi hisobiga aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining qamrov darajasini oshirishga erishilgan;

ijtimoiy jihatdan muhtojlikni baholash uslubiyoti kambag'allik darajasining “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga guruhlash orqali ularga toifalaridan kelib chiqib davlat xizmatlaridan foydalanishda 25-75 foizgacha imtiyozlarni qo'llashga asoslanuvchi hududiy reyting va individual tartibdagi “Scoring” baholash uslubiyoti asosida takomillashtirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-maydagi PF-84-sonli “Kambag'al oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi Farmonining 2-3 bandlarida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Savdo-Sanoat palatasi 2025-yil 17-oktabr 05-33-11864-sonli ma'lumotnoma, O'zbekiston respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi 2025-yil 26- iyun 01/00-02/09-5899-sonli ma'lumotnoma). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish orqali mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini oshirishga erishilgan;

bandlik va faol ijtimoiy himoya dasturlari samaradorligini oshirishda o'zaro integratsiyalash “Ijtimoiy himoya yagona reestri”ga kiritilgan aholi uchun 50-100 tagacha ish o'rinlari uchun 50 foiz, 101-200 tagacha – 75 foiz, 200 tadan ortiq ish o'rinlari yaratilganligi uchun 100,0 foizlik mol mulk va yer solig'i imtiyozlari taqdim etish maqsadga muvofiqligi taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-iyuldagi 279-sonli “20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis” dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorining 3-ilovasi 3-4 bandlarida o'z aksini topgan (O'zbekiston Savdo-Sanoat palatasi 2025-yil 17- oktabr 05-33-11864-sonli ma'lumotnoma). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi hisobiga ishsizlik holatidagi ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi guruhlari bandligini ta'minlashga erishilgan;

“O'zbekiston – 2030” strategiyasi sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini kambag'al aholining iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlari orqali takomillashtirishning bazaviy, inersion va optimistik ssenariyalariga asoslangan holda ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyundagi PF-

175-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonining 2-ilovasi 5-bandi maqsadli ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Savdo-Sanoat palatasi 2025-yil 17-oktabr 05-33-11864-sonli ma’lumotnoma). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi hisobiga mamlakatda aholi bandligini rag‘batlantirishda faol ijtimoiy himoyaga ustuvorlik qaratish orqali kambag‘allik darajasini 5,0 foizgacha qisqartirish imkoniyati mavjudligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 7 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta ilmiy maqola, shundan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 130 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmi amal qilishining ilmiy-uslubiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmiga bag‘ishlangan ilmiy qarashlarni tahlil qilingan, guruhlangan, shuningdek, aholini ijtimoiy himoya qilish hamda ushbu tizimning iqtisodiy kategoriyalar asosida takomillashtirilgan mualliflik yondashuvlari ishlab chiqilgan, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilish tamoyillari tahlil qilinib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanib, aholini ijtimoiy himoya qilishning iqtisodiy mexanizmi amal qilishining global tendensiyalari baholangan.

Mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarni ishlab chiqishda ushbu tizimning turli iqtisodiy rivojlanish shart-sharoitlarida amal qilish xususiyatlariga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa iqtisodiy fanda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmiga bag‘ishlangan ilmiy nazariyalarni chuqur tahlil qilish va ularni qiyosiy taqqoslash zaruratini oshiradi.

Global darajada aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini amal qilish xususiyatlari, uning mexanizmini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar

o'tkazib boruvchi Xalqaro ijtimoiy himoya assotsiatsiyasi (XIHA, International Social Security Association – ISSA)⁶, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)⁷, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)⁸ ekspertlari fikrlariga ko'ra, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi davlatning aholi oldidagi ijtimoiy majburiyatlari, kafolatlari va vazifalarini hal qilish imkonini beruvchi, ijtimoiy siyosat dasturlarini amalga oshirishda bevosita ishtirok etuvchi turli sohalarni qamrab olib, bunda ijtimoiy soha tarkibiga kiruvchi tarmoqlar faol qatnashadilar.

1-jadval

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmiga bag'ishlangan nazariyalarning guruhlanishi⁹

Nazariya guruhi	Asoschilari	Bosh g'oyasi
Liberal nazariya	A. Smit, F. Xayek	Shaxsiy mas'uliyatni oshirish va davlat aralashuvni kamaytirish
Keynschilik nazariyasi	J.M. Keyns	Davlatning ijtimoiy faolligini oshirishga ustuvorlik qaratiladi
Neomarksistik nazariya	K. Marks, E.O. Rayt	Kapitalizm rivojlanishi ijtimoiy tabaqalashuv va kambag'allikni keltirib chiqaradi
Funksionalizm	T. Parsons, E. Dyurkeym	Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy siyosatni yuritish
Huquqiy-institusional yondashuv	Xalqaro tashkilotlari, jumladan, BMT, IHTT, XMT, HIHA	Aholini ijtimoiy himoya qilishda ularning ijtimoiy huquqlarini kafolatlanishi
Iqtisodiy adolat nazariyasi	J. Rolz, A. Sen	Zahiralarni qayta taqsimlashda ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash

O'rganishlarga ko'ra, bugungi kunga qadar iqtisodiy fanda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmi amal qilish xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy konseptual yondashuvlarni liberal, keynschilik, neomarksistik, funksional (ayrim manbalarda sotsiologik yoki ijtimoiy deb ham keltiriladi), huquqiy-institusional va iqtisodiy adolat nazariyalari kabilar asosida guruhlash mumkin bo'ladi (1-jadvalga qarang). Bu turdagi guruhlashni amalga oshirishda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmi amal qilishidagi o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarining shakllanishi va ularning takomillashuviga asoslanildi. Har bir ilmiy nazariya guruhi aholini ijtimoiy himoya qilish amaliyotida davlat ishtiroki darajasini o'zgarib borishi bilan o'zaro farqlanadi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi iqtisodiy kategoriyasi mazmunini tushuntirish borasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga asoslangan holda, unga


⁶ Cichon M., Scholz W., Van de Meerendonk A., Hagemeyer K., Bertranou F., Plamondon P. Financing social protection. Quantitative Methods in Social Protection Series: A series on financial, actuarial and statistical aspects of social security prepared jointly by the International Social Security Association and the Social Security Department of the International Labour Office. ILO. – Geneva, 2004. – 663 p.

⁷ Cattaneo U., Schwarzer H., Razavi S., Visentin A. Financing gap for universal social protection: Global, regional and national estimates and strategies for creating fiscal space. ILO Working Paper 113. – Geneva, 2024. – 48 p.

⁸ Scarpetta S. Financing Social Protection in OECD Countries: Role and Uses of Revenue earmarking. OECD Social, Employment and Migration Working Paper No. 312. OECD, 2024. – 26 p.

⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

nisbatan quyidagicha mualliflik yondashuvini ishlab chiqish mumkin bo‘ladi: “aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi – bozor iqtisodiy munosabatlari rivojlanishi sharoitida davlatning mamlakat fuqarolari oldidagi ijtimoiy kafolatlari, vazifalari va majburiyatlarini bajarishida ijtimoiy soha orqali vujudga kelgan ijtimoiy muammolarni hal etish imkonini beruvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma hisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoya qilish esa, davlat va jamiyat a’zolari tomonidan turli aholi qatlamlarini bozor iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishi natijasida vujudga keladigan turli ijtimoiy xavflar, jumladan, kambag‘allik, ishsizlik, mehnatga layoqatsizlik, qarilik, kasallik va shu kabi boshqa holatlarda psixologik, moddiy va huquqiy yordam ko‘rsatishni nazarda tutadi”.



1-rasm. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmi tarkibiy komponentlari¹⁰

Iqtisodiy fanda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan ayrim tadqiqotlar natijalarini tahlili uning iqtisodiy mexanizmi moliyalashtirish manbalari, taqsimlash usullari, nazorat mexanizmlari hamda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda o‘z aksini topadi (1-rasmga qarang), degan xulosaga kelish imkonini berdi.



2-rasm. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilish tamoyillari¹¹

Umuman olganda, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilish tamoyillari ushbu tizim faoliyatini tashkil etuvchi, uni boshqarish hamda yo‘naltirish bo‘yicha umumiy qonun-qoidalar tizimini o‘zida aks ettiradi. Jahon amaliyoti tahliliga ko‘ra, turli mamlakatlarda amal qilib kelayotgan aholini ijtimoiy himoya qilishning milliy tizimlari tamoyillari bir-biridan o‘zaro farqlanib, ular aholini ijtimoiy himoya qilish sohasiga tegishli bo‘lgan davlat dasturlari, milliy strategiyalar, konsepsiyalar, qonunlar va boshqa turdagi me‘yoriy hujjatlarda o‘z

¹⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.

¹¹ Muallif tomonidan tuzilgan.


aksini topadi. Shu sababli, ma'lum bir mamlakat yoki mamlakatlar guruhida amal qilayotgan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilish tamoyillari boshqa bir mamlakat amaliyoti bilan o'zaro o'xshash bo'lmashligi mumkin bo'ladi. Tahlillarga ko'ra, jahondagi yetakchi mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilish tamoyillari 2-rasmda keltirib o'tildi.

2-jadval

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi rivojlanishining global xususiyatlari¹²

Rivojlanish fazasi	Global iqtisodiy inqirozlar	Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining rivojlanish xususiyati
Boshlang'ich davr	1997-yil – Osiyo moliyaviy inqirozi	1990-yillar boshlari – Ijtimoiy xavfsizlik chegaralarini ishlab chiqish 1999-yil – Ijtimoiy risklarni boshqarish
Kengayish davri	2008-2009-yillar – Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi	2004-yil – Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining transformatsiyalashuvi 2006-yil – Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining umrbod himoya mexanizmi
Konsolidatsiya va institusional rivojlanish davri	2015-yil – Yonilg'i inqirozi	2012-yil – Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining tabaqalashuvi hisobiga uni ta'mirchanligini oshirish
Covid-19	2020-yil – Buyuk yopilish (Lock-Down)	2020-yil – Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining moslashuvchan mexanizmlarini ishlab chiqish
Barqaror rivojlanish maqsadlari davri	2022-yil global oziq-ovqat inqirozi va Ukraina urushi	2022-yil – Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi amal qilishida aholining birlamchi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishni rag'batlantirish

Global darajada aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish borasidagi ilmiy izlanishlar tizim uchun 2-jadvalda keltirilgan xususiyatlar xos ekanligini ko'rsatdi:




3-rasm. Jahon mintaqalari kesimida aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish xarajatlari (2010–2022-yillarda o'rtacha YIMga nisbatan foizda)¹³

Global darajada mintaqalar kesimida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilishida aholiga ko'rsatilgan ijtimoiy yordam xarajatlarini moliyalashtirish hajmi bo'yicha 2010–2022-yillarda Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida yalpi ichki mahsulot (YIM) ga nisbatan o'rta hisobda 2,1 foizni tashkil etgan (3-rasmga qarang). Shu o'rinda aytib o'tish keraki, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmi amal qilishida YI mamlakatlari

¹² WFP Social Protection Brief – The Evolution of Social Protection. Institute of Development Studies, January 2024. – 11 p. ma'lumotlari asosida tuzilgan.

¹³ WFP Social Protection Brief – The Evolution of Social Protection. Institute of Development Studies, January 2024. – 11 p. ma'lumotlari asosida tuzilgan.

jahondagi boshqa mamlakatlarga nisbatan yetakchiligi bilan ajralib tursa, Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'lsa, bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish zarurati sezilarli darajada yuqori bo'lib turgan mamlakatlar qatoridan o'rin egallab, ushbu mamlakatlarda amal qilayotgan ijtimoiy himoya tizimining tashqi o'zgarishlarga, xususan, global inqirozlar sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish samaradorligi keskin tushib ketish holatlari namoyon bo'ladi.



4-rasm. Jahonda kambag'allik darajasi, jami aholi soniga nisbatan foizda (24.11.2024 holatiga ko'ra)¹⁴

Global darajada mamlakatlarda kambag'allik darajasi bo'yicha ko'rsatkichlari (4-rasmga qarang) tahliliga ko'ra, quyidagi xulosalarni olish imkoniyatiga erishildi:

- jahon bo'yicha eng yuqori kambag'allik darajasi Ekvatorial Gvineya (76,8 foiz), bilan Janubiy Sudan (76,4 foiz) mamlakatlarida bo'lib, ushbu mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining qamrov darajasini, uning samaradorligi oshirish va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish zarurati mavjud. Mamlakatlar iqtisodiy jihatdan rivojlanish darajasi past bo'lganligi sababli, ular xalqaro donor tashkilotlari va boshqa taraqqiy etgan mamlakatlar bilan ijtimoiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirishlari talab etiladi;

- taraqqiy etgan mamlakatlar guruhida kambag'allik darajasi boshqa mamlakatlarga nisbatan sezilarli darajada pastligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, AQSH da kambag'allik darajasi 17,8 foizni, Buyuk Britaniyada 18,6 foizni, Kanadada esa 11,6 foizni tashkil etadi;

- Madagaskar (70,7 foiz) va Gvatemala (59,3 foiz) kabi mamlakatlar geografik resurslarga boy bo'lishiga qaramay, mamlakatda mavjud imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanila olinmayotganligi sababli ularda kambag'allik darajasi yuqori hisoblanadi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmi amal qilishining global tendensiyalarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarni olishga erishildi:

- aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmi amal qilishi samaradorligi mamlakatning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish holati bilan bevosita aloqador bo'lib, bunda iqtisodiy rivojlanish darajasi ortib borgan sari

¹⁴ Data Pandas: Poverty Rate by Country (Last updated November 24, 2024). URL: <https://www.datapandas.org/ranking/poverty-rate-by-country>

mamlakatlarda tizimning qamrov darajasi va samaradorlik ko'rsatkichlari ham yaxshilanib borish tendensiyasiga ega bo'ladi;

– aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmi amal qilish samaradorligini oshirishda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashga ustuvorlik qaralib, bunda xususiy sektor vakillari bilan davlat xususiy sheriklik mexanizmi, aholini esa ijtimoiy sug'urta mexanizmi asosida tizimga o'z hissalarini qo'shishlariga erishilmoqda;

– global yoki milliy darajada iqtisodiy keskinliklarning avj olishi mamlakatlardagi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmi amal qilishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni baholash uchun shart-sharoitlarni yaratib, uni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish imkonini beradi.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi **“O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi iqtisodiy mexanizmining amal qilish xususiyatlari va mavjud muammolari”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari va ustuvorliklari tahlil qilingan, aholini ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini aniqlash uslubiyoti tadqiq etilib, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining samaradorligi holati baholangan.

O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridan boshlab aholini ijtimoiy himoya qilishning milliy tizimini shakllantirish, uni bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish, jumladan, tizim qamrov darajasini oshirish, uning amal qilish samaradorligini ta'minlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, so'nggi yillarda mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini oshirish, ijtimoiy himoya mexanizmlarining ta'sirchanligini ta'minlash, kambag'allik darajasini qisqartirish, ijtimoiy ta'minot, jumladan, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash, hamda ularni to'lash amaliyotini takomillashtirish, aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarni sifatini oshirish hisobiga aholi turmush farovonligi darajasida ijobiy tendensiyalar ko'zga tashlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi

- Ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam, mehnat bilan bandlik va nogironlarni qo'llab-quvvatlash sohasida asosiy ijrochi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi

- 2023-yilda tashkil etilib, ijtimoiy yordamni muvofiqlashtirish sohasida faoliyat yuritadi

Mahalliy hokimliklar va “daftarlar” (Ayollar, Yoshlar va Temir) tizimi

- Hududiy darajada ijtimoiy jihatdan muhtoj aholini aniqlash va ijtimoiy yordam mexanizmlarining samaradorligini ta'minlash

5-rasm. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining institusional tuzilmalari va ularning funksiyalari¹⁵

¹⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

Shu bilan birgalikda, mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilishida O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, mahalliy hokimliklar va “daftarlar” tizimi kabi institusional tuzilmalar faoliyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi amal qilishini ta’minlashda bosh ijrochi organ sifatida faoliyat yuritib kelmoqda (5-rasmga qarang)

O‘rganishlarga ko‘ra, mamlakatda amal qilayotgan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi ijtimoiy adolat va tenglik, manzillilik, davlat kafolati, ijtimoiy sheriklik, ochiqlik va shaffoflik, barqarorlik va davomiylik, inson qadri ustuvorligi va faol ijtimoiy himoya kabi tamoyillarga asoslanishi aniqlandi.

Jahon amaliyotida ijtimoiy jihatdan muhtojlikni aniqlashda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

- mutlaq kambag‘allik (kambag‘allik chegarasi) – bu foydalanish mumkin bo‘lgan daromad, yalpi daromad yoki iste’mol darajasidan past umr kechiruvchi insonlar. Mutlaq kambag‘allik asosan, iste’mol yoki daromadi kam ta’minlanganlik chegarasidan past bo‘lgan insonlar yoki uy xo‘jaliklarining soni bilan o‘lchanadi. Jahon banki mutlaq kambag‘allik chegarasi sifatida 1,25 AQSH dollaridan kam mablag‘ belgiladi (kurs xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha hisoblanadi)¹⁶. 2016-yilda Jahon banki kambag‘allik chegarasini kuniga 1,9 AQSh dollariga ko‘tardi¹⁷;

- nisbiy kambag‘allik – farovon hayot darajasi yoki ma’lum bir jamiyat qabul qilgan turmush darajasini saqlab qolishning mumkin emasligi. Agar aholining real daromadlari o‘sib, taqsimlanish o‘zgarmagan bo‘lsa, nisbiy qashshoqlik saqlanib qoladi;

- subyektiv kambag‘allik – bu kambag‘allikni faqat bir kishi aniqlay olishi mumkinligiga asoslangan kambag‘allik tushunchasi. Subyektiv kambag‘allik tushunchasini aniqlashda turlicha yondashuvlar mavjud: qancha odam o‘zini yoki do‘stlarini kambag‘al, deb bilishi orqali aniqlanadi. Siz jamoatchilik fikriga asoslanib, mutlaq kambag‘allik chegarasini aniqlab, shu orqali aholi daromadlarini taqqoslashingiz mumkin;

- deprivatsiya (mahrum qilish) usuli – iste’moli jamiyat tomonidan qabul qilingan me’yorga javob bermaydigan ma’lum tovarlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmaganlar kambag‘al deb hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, kam ta’minlanganlik daromadlar yoki zarur tovar va xizmatlarning kam iste’moli bilan birgalikda, sifatsiz oziq-ovqat, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlarining mavjud emasligi, uy-joy sharoitlarining yetishmasligi va boshqalar bilan belgilanadi.

Shu bilan birshgalikda, jahon amaliyotida ijtimoiy jihatdan muhtojlikni aniqlashning bir va ko‘p o‘lchovli usullaridan foydalaniladi va ularning tarkibiy tuzilishlari 3-jadvalda keltirib o‘tildi.

¹⁶ The World Bank, 2007, Understanding Poverty


¹⁷ Всемирный банк повысил порог бедности /ФБА «Экономика сегодня». ФБА «Экономика сегодня». Дата обращения 10 октября 2015. <https://rueconomics.ru/106180-vsemirnyiy-bank-povyisil-porog-bednosti>

Jahon amaliyotida ijtimoiy jihatdan muhtojlikni baholash usullari¹⁸

Bir o'lovli tahlil	Pul ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda	Daromad	Mutlaq qashshoqlik chegarasi	Alohida mamlakatlar uchun milliy valyuta chegaraviy darajasi	1. Asosiy ehtiyojlar uchun xarajatlar
				Xalqaro miqyosda taqqoslanadigan chegaraviy daraja	2.Yashash minimumi
			Nisbiy qashshoqlik chegarasi	Median (o'rtacha) daromad ulushi	3. Xarid qobiliyati pariteti 1,9 AQSh dollaridan past bo'lgan kambag'allar
					4. Xarid qobiliyati pariteti 3,1 AQSh dollaridan past bo'lgan kambag'allar
					5. Nisbatan kam daromad (xar bir mamlakatda 50% yoki 60%dan kamaytirilgan ekvivalengdagi median daromad)
					6. Nisbatan kam daromad bilan bog'liq berilgan vaqt
		Xarajat	Mutlaq qashshoqlik chegarasi	Alohida mamlakatlar uchun milliy valyuta chegaraviy darajasi	7. Nisbiy kabag'allik chegarasi
					8. Asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun xarajatlar
			Nisbiy qashshoqlik chegarasi	Xalqaro miqyosda taqqoslanadigan chegaraviy daraja	9. Yashash minimumi
					10. Xarid qobiliyati pariteti 1,9 AQSh dollaridan past bo'lgan kambag'allar
					11. Xarid qobiliyati pariteti 3,1 AQSh dollaridan past kambag'allar
					12. Nisbatan kam daromad (har bir mamlakatda 50% yoki 60%dan kamaytirilgan ekvivalentdagi median daromad)
					13. Nisbatan kam daromad bilan bog'liq berilgan vaqt
					14. Nisbiy kabag'allik chegarasi
		Kaloriyali iste'mol			
Ko'p o'lovli	Deprivatsiya				16. Ko'rsatkichlar to'plami
	Xalqaro miqyosda solishtirish mumkin bo'lgan ko'p o'lovli kambag'allikni baholash				17. Moddiy mahrumlikni o'z ichiga olgan bir nechta mahrumlik indeksi
	Qashshoqlik bo'yicha Oksford tashabbusi va inson taraqqiyoti metodologiyasi bo'yicha olingan milliy baholar				18. Ko'p o'lovli qashshoqlik indeksi (turli xususiyatlar uchun qiymatlar)
					19. Qashshoq
				20. Kambag'al	

Birlashgan Millatlar tashkiloti (BMT) va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ekspertlari tomonidan ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlarini aniqlashda mamlakatdagi turmush darajasidan kelib chiqqan holda tadqiqotlar amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda asosiy e'tibor mamlakatda qabul qilingan va jamiyat tomonidan e'tirof etilgan yashash minimumi bilan iste'mol savatchasi o'rtasidagi nisbat aniqlanib, belgilangan yashash minimumidan quyi darajada yashayotgan aholi qatlamlari ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlari hisoblanadi. Aholi ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlari turmush darajalariga ko'ra turli guruhlariga ajratiladi. Odatda, iqtisodiy adabiyotda ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlari jamiyatning quyi turmush farovonligi yashash minimumiga ega bo'lgan qismi deb hisoblanib, ular quyi-yuqori (6-rasm bo'yicha X_1), quyi-o'rta (6-rasm bo'yicha X_2) va quyi-quyi (6-rasm bo'yicha X_3) turmush farovonligi bilan baholanadi.

¹⁸ Европейская экономическая комиссия Организация Объединенных Наций. Руководство по измерению бедности. – Нью-Йорк и Женева, 2017. – С. 18-19.



6-rasm. Xalqaro tashkilotlarning aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini aniqlash uslubiyoti¹⁹

O'zbekistonda "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom²⁰ga muvofiq kam ta'minlangan, bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam har bir oila a'zosiga o'rtacha oylik daromad miqdori jami daromad aniqlanayotgan davr uchun belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravardan ortiq bo'lmagan oilalarga tayinlanadi. Oila a'zosiga to'g'ri keladigan o'rtacha oylik jami daromad, bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa yoki moddiy yordam olish uchun murojaat qilingan oydan oldingi oxirgi uch oy uchun hisoblab chiqilgan oilaning mehnatga layoqatli har bir a'zosining o'rtacha oylik daromadi summasini oila a'zolari soniga bo'lgan holda aniqlanadi. O'rtacha oylik jami daromad miqdorini hisoblab chiqishda hisobga olinadigan oilaning jami daromadiga quyidagilar kiritiladi:²¹

- mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlar;
- mulkiy daromadlar;
- yakka tartibdagi tadbirkorning daromadi;
- chet elda ishlaydigan yoki tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan oila a'zolaridan pul tushumlari summasi;
- pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar;
- shaxsiy yordamchi (dehqon) xo'jaligini yuritishdan olingan daromad;
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa daromadlar.


O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilishida mamlakatda kambag'allik darajasini barqaror sur'atlarda qisqartirishga erishilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika

¹⁹ Eurostat: Income and Living Conditions database.: http://epp.eurostat.ec.europa.eu/portal/page/portal/income_social_inclusion_living_conditions/data/database [20 Apr. 2014]. ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 44-sonli Qaroriga 1-ilova, 15.02.2013

²¹ "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 22-bandi

agentligi tomonidan mamlakatda kambag‘allik darajasini baholashda oziqlanishga asoslangan (kunlik iste‘mol hajmi 2400 kkal) uslubiyotdan foydalanilgan holda amalga oshirilgan baholash natijalariga ko‘ra, 2010–2024-yillarda mamlakatda kam ta‘minlangan aholining jami aholi tarkibidagi ulushi qariyb 2,0 martaga kamayib, 17,7 foizdan 8,9 foizgacha qisqarganligi aniqlandi (7-rasmga qarang).



7-rasm. O‘zbekistonda kam ta‘minlanganlik darajasi (ziqlanishga asoslangan uslubiyot bo‘yicha, kunlik iste‘mol 2400 kkal)²²

Mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilishning milliy tizimi amal qilish samaradorligi ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda tizimning qamrov darajasi ko‘rsatkichlarini tadqiq etish talab etiladi. Shu o‘rinda aytish joizki, mamlakatda statistik ma‘lumotlarni jamlash va ularni qayta ishlash bo‘yicha faoliyat yurituvchi tashkilotlarda bu turdagi statistik ma‘lumotlar bazasi shakllantirilmagan. Shu sababli, O‘zbekiston raqamli hukumat portalini hisoblangan “www.my.gov.uz”²³ Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini ma‘lumotlari bazasi orqali 2024-yilda aholining ijtimoiy xizmatlardan foydalanish bo‘yicha ma‘lumotlarini jamlagan holda tahlil qilishni lozim topdik.

4-jadval

Ijtimoiy xizmatlardan foydalanish bo‘yicha Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga tushgan arizalar soni²⁴

Viloyatlar	Arizalar soni (ming)	Arizalar sonidagi ulush, foizda
O‘zbekiston Respublikasi	4839,2	100,0
<i>jumladan:</i>		
Toshkent shahri	623,4	12,9
Toshkent viloyati	511,9	10,6
Samarqand viloyati	444,0	9,2
Farg‘ona viloyati	409,7	8,5
Andijon viloyati	389,6	8,1
Sirdaryo viloyati	343,2	7,1
Qashqadaryo viloyati	330,6	6,8
Jizzax viloyati	322,1	6,7
Namangan viloyati	305,9	6,3
Buxoro viloyati	272,1	5,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	263,4	5,4
Xorazm viloyati	242,0	5,0
Surxondaryo viloyati	220,9	4,6
Navoiy viloyati	160,4	3,3

²² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

²³ Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal URL: <https://my.gov.uz/uz>

²⁴ Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal ma‘lumotlari asosida tuzilgan. URL: <https://my.gov.uz/uz>

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga mamlakat aholisi tomonidan ijtimoiy xizmatlardan foydalanish bo'yicha respublika viloyatlari kesimida kelib tushgan arizalar soni bo'yicha o'tkazilgan tahlillar (4-jadvalga qarang) quyidagi xulosalarni olish imkonini berdi:

– aholini ijtimoiy himoya qilish xizmatlaridan foydalanish bo'yicha Toshkent shahri va Toshkent viloyati eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, ushbu hududlarda raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari respublikaning boshqa viloyatlariga nisbatan sezilarli darajada yuqoriligi bilan xarakterlanadi;

– Samarqand, Farg'ona va Andijon viloyatlari aholisidan ijtimoiy himoya dasturlaridan foydalanish bo'yicha kelib tushgan arizalar soni ko'pligiga qaramay, hududlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining qamrov darajasini oshirish bilan bog'liq muammolar hali hanuz saqlanib qolinmoqda;

– Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida portal orqali ijtimoiy himoya dasturlaridan foydalanish bo'yicha kelib tushgan arizalar soni kam bo'lishi bilan birgalikda, hududlarda amal qilayotgan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining qamrov darajasini oshirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar mavjud ekanligi aniqlandi hamda hududlarda amal qilayotgan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining qamrov darajasini oshirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar mavjud ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari”** deb nomlangan bo'lib, bobda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini oshirish yo'nalishlari aniqlangan, aholining ijtimoiy jihatdan muhtojligini individual tartibdagi “Scoring” va hududlar kesimidagi reyting tizimlarini yuritish tartibi hamda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning inersion, bazaviy va optimistik ssenariyalari ishlab chiqilgan.

Mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini manzilligini oshirishda raqamlashtirish jarayonlarini kuchaytirish bo'yicha quyidagi imkoniyatlar (5-jadvalga qarang) mavjud ekanligi aniqlandi:

5-jadval

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini raqamlashtirish asosida manzilliligini oshirish holati qiyosiy tahlili²⁵

Xususiyatlari	Mamlakatlar		
	O'zbekiston	Braziliya va Indoneziya	Hindiston
Yagona reyestr	Hali to'liq amal qilmaydi	To'liq joriy etilgan	Ijtimoiy himoya tizimi to'liq integratsiyalashtirilgan
Biometrik ID	Joriy etish bosqichida	Mavjud emas	To'liq amalga oshirilgan
Ijtimoiy muhtojlikni avtomatlashtirilgan baholash	Qisman mavjud	Mavjud	Mavjud

Braziliya va Indoneziya mamlakatlari amaliyotida bo'lgani singari “yagona milliy reyestr” orqali aholining ijtimoiy holatini markazlashgan baholash tizimini

²⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

amaliyotga joriy etish hisobiga tizim manzilliligini oshirish. Bunda Braziliyaning “Cadastro Unico” yagona reyestr tizimi singari O‘zbekistonda ham barcha ijtimoiy tuzilmalarni qamrab olgan “Yagona ijtimoiy ma’lumotlar reyestri”ni shakllantirish orqali real vaqtda ishlaydigan tizimga aylantirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu orqali aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini oshirishda quyidagi imkoniyatlarga erishiladi:

- takrorlanuvchi ijtimoiy yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarning oldini olishga;

- ijtimoiy yordam oluvchi mamlakat fuqarolarining real vaqtdagi ijtimoiy holatini aniqlash va unga to‘g‘ri baho berish imkoniyatlari ortadi;

- aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilligi va hisobdorligi ortadi.

Hindiston aholini ijtimoiy himoya qilish amaliyotida foydalanilayotgan fuqarolarning biometrik-ID tizimi bilan integratsiyalashtirilgan “Aadhaar” dasturidan foydalanish bo‘yicha amaliyotidan mamlakatimizda aholini biometrik-ID raqamlari integratsiyalashtirilgan tizim orqali ro‘yxatga olish va uni milliy aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi bilan o‘zaro integratsiyalash imkoniyati mavjud ekanligi aniqlandi. Buning natijasida tizim manzilliligini taxminlash sohasida quyidagi ijobiy tendensiyalarga erishiladi:

- fuqarolarni aniq identifikatsiya qilish imkoniyati ortadi;

- ijtimoiy jihatdan muhtojlik holatida bo‘lmay turib, ijtimoiy yordam dasturlaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni oldini olishga erishiladi;

- aholining ijtimoiy jihatdan muhtojligini aniqlash, uni baholash bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xarajatlari qisqarib, ijtimoiy yordamni yetkazish samaradorligi ortadi.

Nafaqat AQSh, balki bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiruvchi Chilida bo‘lgani singari O‘zbekistonda ham milliy aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi amal qilishida avtomatlashtirilgan baholash va prognoz algoritmlarini joriy etish imkoniyati mavjud. Bunda aholining ijtimoiy holatini baholashda sun‘iy intellekt (AI) ga va avtomatlashtirilgan mashinaviy o‘rganish texnologiyalari asosida baholash tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish kerak bo‘ladi. Ushbu tizimni joriy etishda fuqarolarning daromadlari, ularning mulkiy egalik holati, aholi ro‘yxati va ular xarajatlari haqidagi ma’lumotlar asosida ijtimoiy muhtojlik holati bilan aloqador bo‘lgan “iqtisodiy xavflar indeksi”ni hisoblovchi ball tizimi (Scoring System) ni ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Bu turdagi baholash tizimini joriy etilishi mamlakatda turli aholi guruhlari, jumladan, ijtimoiy jihatdan muhtoj bo‘lgan aholi guruhlari ham muhtojlik holatidan kelib chiqqan holda tegishli guruhlariga ajratishni talab etadi.

Shuningdek, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi manzilligini oshirishda Qozog‘iston mamlakati amaliyotida bo‘lgani singari resurs taqsimotidagi hududiy yondashuvga ustuvorlik qaratish talab etiladi. Bunda ijtimoiy jihatdan muhtojlik holatlari yuqori bo‘lgan hududlarda alohida tartibga asoslangan ijtimoiy yordam

dsturlarini amalga oshirish kerak bo'ladi. Buning uchun hududlarning kambag'allik darajasi bo'yicha reyting tizimlarini ishlab chiqish talab etiladi. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari kabi respublikaning ijtimoiy jihatdan muhtojlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarida ijtimoiy himoya dasturlariga ustuvorlik qaratilib, bir vaqtning o'zida faol va nafaol ijtimoiy himoya dasturlari ko'rsatilishi kerak bo'ladi.


Jumladan, "Ijtimoiy daftarlar" tizimi amal qilishida ishtirok etuvchi jamg'armalar tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy yordamlar Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oilalarga, uy-joy sharoitlarini yaxshilash va sog'liqni saqlash bo'yicha ijtimoiy yordamlar esa oylik daromadi oila a'zolarining har biriga minimal iste'mol xarajatlari miqdorining 2 baravaridan ko'p bo'lmagan oilalarga ham taqdim etilishi maqsadga muvofiq, hisoblanadi. Bu orqali taxminiylar kambag'allik chegarasida yashovchi aholi guruhlarini kelajakda ijtimoiy jihatdan muhtojligi holati ortib ketishi oldini olishga erishiladi. Bu turdagi ijtimoiy yordam dasturlarini ko'rsatishda "Yoshlar" va "Ayollar" daftarlari tizimida faoliyat yuritayotgan jamg'armalar umumiy daromadlarining 1/4 ulushiga teng bo'lgan qismidan ko'p bo'lmagan moliyaviy resurslarni yo'naltirilishi kerak bo'ladi.

Shuningdek, taklif etilayotgan mexanizmida "Ijtimoiy daftarlar" tizimi tarkibiga kiruvchi jamg'armalar mablag'laridan foydalangan holda ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam dasturlari quyidagi yo'nalishlarda bo'lishi talab etiladi:

birinchi, oilalarni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha individual rejada kambag'al oilalarning yoshlari va xotin-qizlariga muayyan ijtimoiy yordamlarning belgilanishi ushbu toifadagi shaxslardan qo'shimcha murojaat talab etmagan holda "Ijtimoiy daftarlar" jamg'armalari hisobidan ijtimoiy yordamlar ko'rsatilishiga asos bo'ladi;


ikkinchi, "Ijtimoiy daftarlar" jamg'armalari hisobidan ijtimoiy yordam ko'rsatishni so'rab murojaat qilgan shaxslarning ijtimoiy holatini aniqlash "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi orqali, oilaning moliyaviy holatini esa idoralararo axborot almashinuvi orqali avtomatik ravishda baholash (skoring) natijalariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijasiga ko'ra, respublikaning turli viloyatlari kesimida kambag'allik darajasi bo'yicha keskin tabaqalanish mavjud ekanligi aniqlandi. Jumladan, kambag'allik darajasi eng past darajada bo'lgan Navoiy viloyati ko'rsatkichi undan keyingi pog'onada turuvchi Toshkent shahriga nisbatan 1,6 foiz punkt birlikka farqlanadi. Shuningdek, viloyatning respublikada kambag'allik darajasi eng yuqori bo'lgan Xorazm viloyati ko'rsatkichiga nisbatan farqi qariyb 2,1 martaga, yoki 6,2 foiz punkt birlikka farq qiladi. Shuningdek, respublika bo'yicha o'rtacha kambag'allik darajasiga nisbatan viloyat ko'rsatkichi 3,2 foiz punkt birlikka farqlanadi (8-rasmga qarang). Ushbu holat mamlakat hududlari kesimida kambag'allik darajasi bo'yicha keskin farqlanish mavjud ekanligini ko'rsatmoqda.



8-rasm. O'zbekiston viloyatlari kesimida kambag'allik darajasi (jami aholi soniga nisbatan foizda, 2024-yil)²⁶

Shuningdek, respublikada amalga oshirilayotgan aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi dasturlarning ham viloyatlar kesimidagi ko'rsatkichlari bir-biridan farq qiladi. Jumladan, 2023-2024-yillarda respublika bo'yicha kambag'allik darajasi eng yuqori darajada kamaygan hududlarga Buxoro (-3,1 foizga) va Samarqand (-3,0 foizga) viloyatlarini kiritish mumkin bo'lsa, Xorazm viloyatida esa (-0,5 foizga) ushbu ko'rsatkich sezilarli darajada past bo'lib, Buxoro viloyati ko'rsatkichiga nisbatan qariyb 6,2 martaga kam hisoblanadi (9-rasmga qarang). Bundan ko'rinib turibdiki, respublika viloyatlari kesimida aholini ijtimoiy himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan dasturlarning samaradorligi ko'rsatkichi ham bir-biridan farq qiladi.



9-rasm. 2023-2024-yillarda O'zbekiston viloyatlari kesimida kambag'allik darajasining kamayish tendensiyasi (2023-yilga nisbatan o'zgarish, foizda)²⁷

Yuqorida o'tkazilgan tahlillarga asoslangan holda, respublika hududlarining kambag'allik darajasi bo'yicha quyidagi tartibda toifalarga ajratishni taklif etamiz:

birinchi, "A" toifa – bu turdagi hududlar respublikada kambag'allik darajasi past bo'lgan hududlar bo'lib, ularning ko'rsatkichlari respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan quyi darajada bo'lishi talab etiladi. O'rganishlar natijasiga ko'ra, bugungi kunda respublika viloyatlarining kambag'allik darajasi past

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

bo'lgan, shuningdek, aynan "A" toifaga kiruvchi hududlariga Toshkent shahri, Navoiy, Samarqand va Namangan viloyatlarini kiritish mumkin bo'ladi;

ikkinchi, "B" toifa – bu o'rta darajadagi kambag'allik darajasi bo'lgan hududlar bo'lib, ushbu hududlar ko'rsatkichi respublika bo'yicha o'rta daraja bilan deyarli bir xil darajada bo'lgan hududlar hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda Farg'ona, Buxoro, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari "B" toifaga kiruvchi hududlar hisoblanadi;

uchinchi, "S" toifaga kiruvchi hududlarda kambag'allik darajasi respublika bo'yicha eng yuqori bo'lgan hududlar kiritilib, mamlakatimizda ushbu toifaga kiruvchi hududlar qatoriga Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan Qashqadaryo viloyatini kiritish mumkin bo'ladi.

6-jadval

O'zbekistonda viloyatlardagi kambag'allik darajasi bo'yicha tafovutlarni kelib chiqish sabablari²⁸

Omillar	Omillarning ta'siri
Iqtisodiy diversifikatsiya	Sanoat va xizmatlar sohasi rivojlangan hududlarda kambag'allik darajasi kam
Infratuzilma va transport	Aholini ijtimoiy himoya qilishda infratuzilma va transport bilan bog'liq xususiyatlar Navoiy va Samarqand viloyatlarida ustuvor ahamiyat kasb etadi
Aholi zichligi va ta'lim	Ma'lum bir kasbga ega bo'lmagan aholi ulushi ko'p bo'lib, ishsizlik darajasi yuqori bo'lishiga olib keladi
Hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash	Oilaviy tadbirkorlik, subsidiyalar, ijtimoiy nafaqalar orqali aholini ijtimoiy himoyalash

O'tkazilgan tahlillarga ko'ra, respublika hududlarida kambag'allik darajasining o'zaro bir-biridan farqlanishi bilan bog'liq bo'lgan omillarni aniqlandi va ular to'g'risidagi ma'lumotlar 6-jadvalda keltirib o'tildi.

Shuningdek, so'nggi yillarda mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarida individual yondashuvni oshirish orqali ijtimoiy himoya samaradorligini oshirish uchun ijtimoiy jihatdan muhtojlikni "Scoring" baholash amaliyotini ishlab chiqish talab etiladi. Bu orqali aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordam dasturlarini ularning ijtimoiy jihatdan muhtojligidan kelib chiqib tabaqalashgan holda amalga oshirishga erishiladi. Fikrimizcha, keyingi yillarda mamlakatda aholining ijtimoiy jihatdan muhtojligini "Scoring" baholash amaliyotini joriy etishda ularni "qizil", "sariq" va "yashil" toifalarga ajratish (7-jadvalga qarang) maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Taklif etilayotgan guruhlash asosida toifalarga tegishli bo'lgan aholining ijtimoiy guruhlari quyidagi tartibda izohlanadi:

birinchi, "qizil" toifaga oila a'zolarining har biriga to'g'ri keladigan o'rtacha oylik daromadi minimal iste'mol xarajatlaridan kam bo'lgan va quyidagi mezonlarning biriga javob beradigan oilalar:

– a'zolarining kamida bir nafari sog'lig'ining holatiga ko'ra mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan oila;

²⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.

- parvarishga muhtoj aʼzosi, shu jumladan, nogironligi mavjud farzandi boʻlgan oila;
- oʻzgalar parvarishiga muhtoj yolgʻiz yashovchi yoki yolgʻiz keksa yoxud yolgʻiz nogironligi boʻlgan shaxsdan iborat boʻlgan oila;
- boquvchisini yoʻqotgan yoki boquvchisi jazoni ijro etish muassasasida boʻlgan oila;

7-jadval

Oʻzbekistonda aholining ijtimoiy jihatdan muhtojligini “Scoring” baholash orqali toifalarga ajratish²⁹

Ijtimoiy muhtojlik darajasi	“Scoring” baholash boʻyicha toifasi	Davlat xizmatlaridan foydalanish toʻlovlari toʻlashdagi imtiyozlari
Keskin ogʻir darajada	“Qizil” toifa	75,0 foiz
Oʻrta ogʻir darajada	“Sariq” toifa	50,0 foiz
Ogʻirlik darajasi nisbatan yengil	“Yashil” toifa	25,0 foiz

ikkinchi, “sariq” toifaga oila aʼzolarining har biriga toʻgʻri keladigan oʻrtacha oylik daromadi minimal isteʼmol xarajatlaridan kam boʻlgan hamda aʼzolari sogʻligʻining holatiga koʻra mehnat qilish imkoniyatiga ega boʻlgan oilalar;

uchinchi, “yashil” toifaga oila aʼzolarining har biriga toʻgʻri keladigan oʻrtacha oylik daromadi minimal isteʼmol xarajatlarining bir baravaridan bir yarim baravarigacha boʻlgan va quyidagi mezonlarning biriga javob beradigan oilalar kiritiladi:

- oila “qizil” yoki “sariq” toifadan chiqarilgan boʻlsa;
- oilaning Kambagʻal oilalar reyestriga kiritilishi ehtimoli yuqori boʻlsa.

Shu bilan birgalikda, ijtimoiy jihatdan muhtojlik darajasidan kelib chiqqan holda, tegishli toifalar uchun davlat xizmatlaridan foydalanish jarayoni bilan bogʻliq boʻlgan bojlar, yigʻimlar va boshqa toʻlovlarni toʻlashda “yashil” toifaga – 25 foiz, “sariq” toifaga kiritilgan oilalarga – 50 foiz, “qizil” toifaga kiritilgan oilalarga esa – 75 foiz miqdorida chegirmalar qoʻllanilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Jumladan, kambagʻal oilalar “qizil” yoki “sariq” toifadan “yashil” toifaga oʻtganda ular uchun qonunchilikda nazarda tutilgan davlat ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash choralari keyingi oʻn ikki oy muddatga saqlab qolinadi.

Soʻnggi yillarda mamlakatda turli sanoat tarmoqlari korxonalari faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari aholini ijtimoiy himoya qilishning faol dasturlari bilan oʻzaro mutanosiblikda amalga oshirilib kelinayotganligini inobatga olib, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirilishini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashda tadbirkorlik subyektlari uchun “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kirgan fuqarolarni bandligini taʼminlagani hisobiga soliq imtiyozlarini taqdim etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bunda korxona jami ishchilari tarkibida reyestriga kiritilgan aholining ulushi kamida 20,0 foizni tashkil etgan korxonalar uchun mol-mulk va yer soligʻi boʻyicha tabaqalashtirilgan soliq imtiyozlarini joriy etishni taklif etamiz (8-jadvalga qarang).

²⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

Taklif etilayotgan soliq imtiyozidan foydalanishda korxona uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

8-jadval

Aholini faol dasturlar orqali ijtimoiy himoya qilishni qo'llab-quvvatlash³⁰

Imtiyoz qo'llaniladigan soliq bazasi	Korxonadagi ish o'rinlari soni	Korxonadagi "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kirgan ishchilar soni	Taqdim etiladigan soliq imtiyozi (soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda)
Korxona tomonidan to'lanadigan mol-mulk va yer solig'i	51–100 tagacha	13–25 tagacha	50,0 foiz
	101–200 tagacha	26–50 tagacha	75,0 foiz
	200 tadan ko'p	51 ta va undan ko'p	100,0 foiz

– korxona tomonidan ishga yollangan "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kirgan fuqarolarni kamida bir yil muddat davomida bandligini ta'minlashi va unga eng kamida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining bir baravarida kam bo'lmagan oylik ish haqini belgilab borishi;

– korxonaning jami yollanma xodimlari tarkibida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kirgan ishchilarining ulushi eng kami bilan 20,0 foizni tashkil etishi;

– korxona eng kamida ikki yillik faoliyat yuritish amaliyotiga ega bo'lishi;

– korxonaning ustav kapitalida davlat ulushining bo'lmashligi, ya'ni xususiy kapital ishtirokida tashkil etilgan bo'lishi.

Yuqoridagi talablarga javob bermagan korxonalarga soliq imtiyozidan foydalanish imkoniyati berilmaydi. Shu bilan birgalikda, soliq imtiyozidan foydalanish davrida korxona ma'lum bir talablardan chiqishi, masalan, ishchilarni ishdan bo'shatishi yoki yangi xodimlarni ishga yollashi hisobiga korxonaning jami yollanma xodimlari tarkibida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kirgan ishchilarining ulushi 20,0 foizdan kamaygan holatda unga taqdim etilayotgan soliq imtiyozini bekor qilish mumkin bo'ladi.

Mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning bazaviy, inersion va optimistik ssenariyalari ishlab chiqilib, ularni hisoblash tenglamalari 9-jadvalda keltirib o'tildi. Demak, inersion ssenariyalarni ishlab chiqishda mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar to'xtatilib, ijtimoiy yordam dasturlariga ustuvorlik qaratilmasligi, jumladan, mamlakat aholisi tarkibida kambag'allik darajasini kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ahamiyati inobatga olinmagan holda ishlab chiqilgan hisoblanadi. Ushbu ssenariya asosida mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilishida 2025–2030-yillarda kambag'allik darajasi 3,7 foiz punkt birlikka ortib, 12,6 foizni tashkil etishi mumkinligi aniqlandi (10-rasmga qarang). Ushbu holat bugungi kunda mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan islohotlar faol ijtimoiy himoya dasturlari doirasida mehnat bozorida aholi bandligini rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan o'zaro integratsiyalashuvi hisobiga kambag'allik darajasi keskin ortib ketmasligini

³⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.


ko'rsatadi. Bu esa aholini ijtimoiy himoya qilishda ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi guruhlarini kasb-hunarga o'qitish hisobiga ularning o'z-o'zini band qilish imkoniyatlarini kengaytirilganligidan dalolat beradi.

9-jadval

Prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash tenglamalari³¹

Prognoz ssenariyasi	Hisoblash tenglamasi
Inersion ssenariya	$y = 0,0247x^2 - 0,782x + 17,293$
Bazaviy ssenariya	$y = -0,0047x^2 - 0,3298x + 16,115$
Optimistik ssenariya	$y = -0,0181x^2 - 0,1334x + 15,624$

Bazaviy ssenariyalar 2010–2024-yillarda mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni shu yo'sinda davom ettirgan holda, vaqt (t) omili o'zgarishi hisobiga kambag'allik darajasini o'zgarishini aniqlash asosida ishlab chiqilgan. Mazkur ssenariyaga asoslangan hisob-kitoblar mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini kelgusi yillarda shu yo'sinda takomillashtirilishi hisobiga kambag'allik darajasini 7,2 foizgacha qisqartirish imkoniyati mavjud ekanligini ko'rsatdi (10-rasmga qarang).



10-rasm. O'zbekiston aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning muqobil ssenariyalari³²

Shu bilan birgalikda, optimistik ssenariyalarni ishlab chiqishda mamlakatda kambag'allik darajasini qisqarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ahamiyatini qo'shimcha 5,0 foizga oshirilgan holda, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirilishiga asoslanildi. Prognozlarga ko'ra, "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish sharoitida mamlakatda kambag'allik darajasini 5,0 foizgacha qisqartirish imkoniyati mavjud ekanligi aniqlandi (10-rasmga qarang). Ushbu holat bugungi kunda mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish imkoniyatidan to'laqonli foydalanilmayotganligini ko'rsatdi.

³¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

³² Muallif tomonidan hisoblangan.

XULOSA

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlarimiz quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish bilan birgalikda, qator ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni olish imkonini berdi:

1. Aholini ijtimoiy himoya qilish – bu davlat va jamiyat a'zolari tomonidan turli aholi qatlamlarini bozor iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishi natijasida vujudga keladigan turli ijtimoiy xavflar, jumladan, kambag'allik, ishsizlik, mehnatga layoqatsizlik, qarilik, kasallik va shu kabi boshqa holatlarda psixologik, moddiy va huquqiy yordam ko'rsatishni nazarda tutadi.

2. Iqtisodiy fandagi ilmiy qarashlarni tizimli tahlil qilish asosida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi – bozor iqtisodiy munosabatlari rivojlanishi sharoitida davlatning mamlakat fuqarolari oldidagi ijtimoiy kafolatlari, vazifalari va majburiyatlarini bajarishida ijtimoiy soha orqali vujudga kelgan ijtimoiy muaammolarni hal etish imkonini beruvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma hisoblanadi, degan xulosaga kelindi.

3. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishning milliy tizimi amal qilishida O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, mahalliy hokimliklar va "daftarlar ("Ayollar", "Yoshlar" va "Temir" daftarlari)" tizimlari kabi institusional tuzilmalarning o'zaro faoliyatiga asoslangan holda amal qiladi.

4. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi, "Ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi, "Himiylik to'g'risida"gi Qonunlari bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda tizim amal qilishi bilan aloqador bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topadi.

5. Mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini manzilligini oshirishda raqamlashtirish jarayonlarini kuchaytirish bo'yicha quyidagi imkoniyatlar mavjud ekanligi aniqlandi: "Yagona ijtimoiy ma'lumotlar reyestri"ni shakllantirish orqali real vaqtda ishlaydigan tizimga aylantirish; mamlakatimizda aholini biometrik-ID raqamlari integratsiyalashtirilgan tizim orqali ro'yxatga olish va uni milliy aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi bilan o'zaro integratsiyalash; aholining ijtimoiy holatini baholashda sun'iy intellekt (AI) ga va avtomatlashtirilgan mashinaviy o'rganish texnologiyalari asosida baholash tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish; resurs taqsimotidagi hududiy yondashuvga ustuvorlik qaratish.

6. "Ijtimoiy daftarlar" tizimi amal qilishida ishtirok etuvchi jamg'armalar tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy yordamlar Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oilalarga, uy-joy sharoitlarini yaxshilash va sog'liqni saqlash bo'yicha ijtimoiy yordamlar esa oylik daromadi oila a'zolarining har biriga minimal

iste'mol xarajatlari miqdorining 2 baravaridan ko'p bo'lmagan oilalarga ham taqdim etilishi maqsadga muvofiq.

7. Respublika hududlarining kambag'allik darajasi bo'yicha "Reyting" tizimlarini shakllantirishda viloyatlarni quyidagi tartibda guruhlash talab etiladi: eng past kambag'allik darajasi – "A" toifa hududlari, o'rta darajadagi hududlar – "B" toifa hududlari va kambag'allik darajasi eng ko'p bo'lgan – "S" toifa hududlari.

8. Aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordam dasturlari samaradorligini oshirishda individual yondashuv asosida "Scoring" baholash tizimi asosida ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi guruhlarini ijtimoiy muhtojlikning quyidagi darajalari bo'yicha tegishli guruhlashni amalga oshirish kerak bo'ladi: "qizil" toifa – keskin og'ir daraja, o'rta og'ir daraja – "sariq" toifa va og'irlik darajasi nisbatan yengil bo'lgan "yashil" toifa. Ijtimoiy jihatdan muhtojlik toifalaridan kelib chiqib, davlat xizmatlaridan foydalanish bo'yicha quyidagi hajmdagi imtiyozlarni joriy etish kerak bo'ladi: "yashil" toifaga – 25 foiz, "sariq" toifaga kiritilgan oilalarga – 50 foiz, "qizil" toifaga kiritilgan oilalarga – 75 foiz miqdoridagi chegirmalarni qo'llash.

9. Mehnat bozorida ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi guruhlarining bandligini rag'batlantirish maqsadida, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kirgan fuqarolarni bandligini ta'minlagani hisobiga xususiy sektor vakillariga soliq imtiyozlarini taqdim etish kerak bo'ladi. Bunda korxona jami ishchilari tarkibida reyestrga kiritilgan aholining ulushi kamida 20,0 foizni tashkil etgan korxonalar uchun mol-mulk va yer solig'i bo'yicha tabaqalashtirilgan soliq imtiyozlarini qo'llash maqsadga muvofiq.

10. Aholini ijtimoiy himoya qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan muqobil ssenariyalarga ko'ra, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi sharoitida kambag'allik darajasi inersion ssenariyaga ko'ra 12,6 foizga ortishi, bazaviy ssenariyada esa 7,2 foizgacha, optimistik ssenariyada esa 5,0 foizgacha qisqarishi mumkinligi aniqlandi.

**ОДНОРАЗОВЫЙ ДИССЕРТАЦИОННЫЙ СОВЕТ ПРИ БУХАРСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ НА ОСНОВАНИИ
НАУЧНОГО СОВЕТА ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
№ DSc.03/2025.27.12.I.08.03**

АЗИАТСКИЙ МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ДИЛМУРОДОВ ХУРШИДБЕК БАХОДИР УГЛИ

**НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО
МЕХАНИЗМА СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ**

08.00.01 – Экономическая теория

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Тема диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.3.PhD/Iqt4537.

Диссертационная работа выполнена в Азиатском международном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-сайте Учёного совета (www.buxdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Абдуллаев Аслиддин Джунайдуллоевич Доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Низамов Аслетдин Бадреддинович Доктор экономических наук, профессор Аскарлов Назимжон Ниёзович Доктор экономических наук, старший научный сотрудник
Ведущая организация	Андижанский государственный университет имени Захириддина Мухаммада Бабура

Защита диссертации состоится на заседании одноразового Учёного совета, созданного на основании диссертационного совета № DSc.03/2025.27.12.I.08.03 при Бухарском государственном университете, в 2026 году «___» _____ в ____ часов.

Адрес: 200117, г. Бухара, ул. М. Икбола, дом 11. Тел.: (998 65) 221-29-14, (998 65) 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Азиатского международного университета (зарегистрирована под номером ____). Адрес: г. Бухара, МФЙ «Янгиобод», ул. Гиждуван, дом 74. Тел.: +998 55 305 00 09, e-mail: info@oxi.uz

Автореферат диссертации был распространён «» _____ 2026 года.

(Протокол реестра № _____ от «» _____ 2026 года)

О.Х. Хамидов

Председатель одноразового совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

Д.Ш. Явмутов

Учёный секретарь одноразового совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

Б.Н. Навруз-зода

Председатель научного семинара одноразового совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ

Актуальность и необходимость темы диссертации. Социальные, экономические, политические и экологические напряжённости, происходящие в мире, негативно влияют на эффективность экономического механизма систем социальной защиты населения в различных странах, что приводит к снижению охвата населения мерами социальной защиты. Согласно данным Всемирного банка, «в настоящее время 52,0% населения мира охвачено системой социальной защиты. В странах с низким уровнем дохода 78% нуждающегося населения не охвачено такими услугами, в странах со средне-низким уровнем дохода — 28%, а в странах со средне-высоким уровнем дохода — 11%». Это, в свою очередь, поднимает необходимость совершенствования экономического механизма системы социальной защиты населения.

В мире увеличивается количество научных исследований, посвящённых совершенствованию экономического механизма системы социальной защиты населения. В частности, это касается повышения адресности и эффективности программ социальной помощи, диверсификации источников их финансирования, разработки современных методов государственно-частного партнёрства, трансформации системы социальной защиты на основе цифровых технологий, а также применения территориального и индивидуального подходов в обеспечении социальной защиты населения.

В Узбекистане в рамках широкомасштабных реформ, направленных на совершенствование экономического механизма системы социальной защиты населения, приоритетное внимание уделяется повышению адресности и эффективности программ социальной помощи, цифровизации системы социальной защиты, а также реализации активных программ социальной защиты населения, интегрированных с обеспечением занятости на рынке труда. В частности, высказывание Президента Ш.М. Мирзиёева: «Будет сформирован перечень махаллей с высоким уровнем бедности. Ежегодно Агентство по социальной защите населения и хокимияты будут отбирать 50 махаллей, которые поэтапно будут преобразованы в территории, свободные от бедности и безработицы»³³, свидетельствует о том, что проводимые в данном направлении реформы и в будущем сохранят свою приоритетность.

Данная диссертационная работа в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в ряде нормативно-правовых актов, в том числе:

Указе Президента Республики Узбекистан № УП-128 от 29 апреля 2022 года «О дополнительных мерах по материальной поддержке слоёв населения, нуждающихся в социальной защите»;

Указе № УП-175 от 25 июля 2022 года «Об утверждении Стратегии социальной защиты населения Республики Узбекистан»;

³³ Будет совершенствована система сокращения бедности и социальной защиты.
<https://www.president.uz/uz/lists/view/7467>

Указе № УП-143 от 23 сентября 2024 года «О выведении на новый этап мер по сокращению бедности и повышению уровня благосостояния населения»;

Указе № УП-84 от 8 мая 2025 года «О дальнейшем совершенствовании системы государственной социальной поддержки малообеспеченных семей»;

Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-230 от 29 апреля 2022 года «О дополнительных мерах по материальной поддержке нуждающихся слоёв населения»;

Постановлении № ПП-330 от 23 сентября 2024 года «О первоочередных мерах по реализации программы "От бедности – к благополучию"»;

Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 484 от 8 августа 2024 года «О мерах по предоставлению государством гарантированных социальных услуг нуждающимся слоям населения»;

Постановлении № 897 от 27 декабря 2024 года «О мерах по внедрению системы “Социальная карта” в социальной поддержке населения»;

и Постановлении № 125 от 27 февраля 2025 года «О совершенствовании процедур предоставления помощи, направленной на вывод семей из бедности», а также других нормативно-правовых документах, регулирующих данную сферу..

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан I — «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

